

Yashil

IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 5



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 114 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari..... | 10 |
| Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullo o'g'li | |
| Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari | 16 |
| Akbarov Bekmurod Miryakubovich | |
| Qoraqlapog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi..... | 22 |
| Norchayev Asatullo Norbo'tayevich | |
| Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy..... | 28 |
| Tulagan Tukhtalariev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich | |
| Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish..... | 31 |
| Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi | |
| O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida | 34 |
| Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li | |
| Oliy ta'larning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lum sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida)..... | 40 |
| Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li | |
| Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export | 46 |
| Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna | |
| O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari | 49 |
| Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich | |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari | 54 |
| Ibdullahayeva Malohat Sirojiddin qizi | |
| Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi..... | 57 |
| Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich | |
| Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari..... | 61 |
| Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi | |
| Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari | 68 |
| Uralov Olimjon Muhammadjonovich | |
| Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil | 72 |
| Mirzatov Baxtiyor Toxirovich | |
| Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar | 77 |
| A. I. Raxmatov | |
| Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана..... | 83 |
| Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи | |
| Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili | 88 |
| Kuziyeva Nargiza Ramazanova, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li | |
| Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili..... | 94 |
| R. I. Pardayev | |
| Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri..... | 101 |
| Raxmanova Xuriniso Egamovna | |
| Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati | 104 |
| Rajjaboyeva Dildora Zakirovna | |
| Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash | 110 |
| Nilufar Sharipova | |
| Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati | 114 |
| Karimov Shamsiddin Akram o'g'li | |



| | |
|---|-----|
| Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari..... | 122 |
| Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi | |
| Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari..... | 127 |
| Davronbek Sharibjonovich Raximov | |
| Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili | 133 |
| Aminov Farrux Farxadovich | |
| Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari..... | 138 |
| G. J. Jumayeva | |
| Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari.... | 141 |
| Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich | |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliini boshqarishdagi muammolar | 146 |
| Nematova Shaxlo Egamberdiyevna | |
| Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari..... | 149 |
| Xakimov Zohid Norbo'tayevich | |
| Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish..... | 158 |
| Zoirov O'imas Erkin o'g'li | |
| Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash | 164 |
| Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna | |
| Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана..... | 168 |
| Иноятова Камола Фуркатовна | |
| Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni | 172 |
| X. X. Ikramov | |
| Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari | 176 |
| Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li | |
| Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida)..... | 182 |
| Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov | |
| Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franchizing roli | 189 |
| Rabimqulov Sherzod Murtozayevich | |
| Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari..... | 193 |
| Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich | |



BANKLARDA STRESS-TEST ASOSIDA ESG-RISKLARNI BAHOLASH

ORCID: 0000-0002-4892-9922

Nilufar SharipovaPhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank hisobi va audit” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Moliya tizimi, ayniqsa, tijorat banklarining barqarorligi dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi. Banklarning turli risklarini xedjirlashda stress-test usulidan foydalanish bank moliyaviy barqarorligi holati tahlilida keng qo'llaniladi. Maqolada stress-testlarning banklarda ESG-risklarni baholashda qo'llanilishi nazariy jihatlari o'rganilgan hamda tegishli xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, stress-test, ESG-risklarni boshqarish.

Abstract: The financial system, especially the stability of commercial banks, is one of the most urgent issues. The use of the stress testing method in hedging various risks of banks is widely used in analyzing the financial stability of banks. The article discusses the theoretical aspects of using stress tests to assess banks' ESG risks and draws corresponding conclusions.

Key words: commercial banks, financial stability, stress testing, ESG-risk management.

Аннотация: Финансовая система, особенно устойчивость коммерческих банков, является одним из актуальных вопросов. Применение метода стресс-тестирования при хеджировании различных рисков банков широко применяется при анализе состояния финансовой устойчивости банков. В статье рассматриваются теоретические аспекты использования стресс-тестов для оценки ESG-рисков банков и делаются соответствующие выводы.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая стабильность, стресс-тестирование, управление ESG- рисками.

KIRISH

Bank tizimining bozor agentlari moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi turli salbiy jarayonlar va shok holatlariiga nisbatan barqarorligi iqtisodiy xavfsizlikning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash va monitoring funksiyasi 1974-yilda tashkil qilingan Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalariga asosan, Markaziy banklar tomonidan amalga oshiriladi.

Bazel qo'miasi banklar faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan to'rt kategoriyalagi risk turlarini belgilab bergen:

- kredit riski (qarzdorlarning shartnomada belgilangan majburiyatlarini belgilangan shartlar asosida bajarmasligi bilan bog'liq);
- bozor riski (bozor narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq yo'qotishlar);
- likvidlilik riski (bankning passivlar kamayishi va aktivlar o'sishini moliyalashtirishni samarali boshqara olmasligi bilan bog'liq risklar);
- operatsion risk (ichki jarayonlar yoki tizimdagи uzilishlar, xodimlarning o'z vazifalarini to'laqonli bajara olmasligi yoki tashqi ta'sirlar ostidagi yo'qotishlar).

ESG omillar hamda iqlim o'zgarishining sezilarli ta'siri ortishi natijasida xalqaro amaliyotda ESG sohasidagi risklarni integratsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (environmental, social, and governance) risklar bo'yicha omillarni banklar turli bank risklarini hisobga olish hamda strategik rejalashtirish jarayonlarida hisobga olishlari zaruriyatga aylanmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning banklarda stress-test qo'llanilishi, risklarni baholash bo'yicha iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa bank boshqaruvi tomonidan 2019-yilda chop etilgan barqaror moliyalashtirish bo'yicha harakatlar rejasida ESG-risklarni baholash bo'yicha to'liq yondashuv, risklarni boshqarish, ma'lumotlarni oshkor qilish, stress test va ssenar tahlilni amalga oshirish bo'yicha to'liq dastur taqdim etildi. Ushbu hujjatda bank operatsiyalarida ESG-risklarni hisobga olish qat'iy tavsiya etiladi. Bank operatsiyalarini amalga oshirishda asosiy masalalar bo'lib quydagilar hisoblanadi:

- ESG-risklarni ssenar tahlil hamda stress-testni amalga oshirishda qo'llash;
- ESG sohasidagi risklarni kredit anderraytingi jarayonlariga integratsiya qilish. ESG sohasidagi risklarni aniqlashda hali aniq bir standartlarning mavjud emasligi ushbu jarayonlarni murakkablashtiradi. Banklar tomonidan bu kabi risklarni boshqarish ko'proq sifat tahlilini amalga oshirishni talab qiladi.

ESG-risklarni xalqaro amaliyotda integratsiya qilinishida quydagi qiyinchiliklar yuzaga keladi:

- Qonunchilik sohasida umumiy qoidalarning mavjud emasligi banklar o'z ESG-risklarini boshqarish jarayonida kelajakdagi o'zgarishlarni prognoz qilishda moslashuvchanlikka aohlovida e'tibor qaratishlarini talab qiladi;
- ESG sohasidagi risklar o'zaro hamda boshqa turdag'i risklar bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lgani sababli banklarda risklarni boshqarishning butun tizimiga o'zgartirishlar kiritilishi talab qilinadi;
- ESG sohasidagi risklar massshtabiga siyosiy qarashlar, ommaviy axborot vositalari hamda jamoatchilik fikri ham ta'sir ko'rsatgani sababli bunday risklarni boshqarishda moslashuvchanlik asosiy o'rinni egalaydi;
- ESG sohasidagi risklarni qoplash uchun kapitalga talablar bo'yicha normativ aktlarga majburiy talablar kiritilishi masalasi ko'rib chiqilishi lozim bo'ladi.

Banklar tomonidan ESG-risklarni to'g'ri boshqarish banklar mahsuloti nuqtai-nazaridan ham, moliyalashtirish nuqtai-nazaridan ham bank rentabelligini oshirishga xizmat qiladi. Oxirgi yillarda butun dunyoda anomal tabiat hodisalarining ko'payishi zamонави iqtisodiyotni izdan chiqaruvchi omillarni keltirib chiqara boshladи. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti agar iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmasa, 2100-yilga kelib global yalpi ichki mahsulot 12 % ga kamayishini prognoz qilgan. Butunjahon iqtisodiy forumining 2020-yildagi Global risklar bo'yicha dokladiga asosan, ekstremal ob-havo sharoitlari, iqlim o'zgarishini yumshatish va unga moslasha olmaslik hamda tabiiy ofatlar eng ko'p ehtimolli risklar hisoblanadi. Hujjatga asosan, bunday risklar firibgarlik riski va kiberhujumlar borasidagi global risklardan ko'ra ehtimolligi yuqori risklar qatoriga kiritilgan. Iqlim ta'siri riski yuqori ehtimolli risk hisoblangani sababli uni baholash zaruriyatini yuzaga keladi.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy risk bank moliyaviy barqarorligiga quydagi risklar vositasida ta'sir qiladi:

- Iqlim o'zgarishi bilan yuzaga keladigan jismoniy risklar;
- Past uglerodli yoqilg'iga o'tilishi bilan bog'liq risklar;
- Iqlimdag'i o'zgarishlar sababli zarar ko'rgan subyektlarga kompensatsiyalar to'lab berilishi bilan bog'liq risklar.

Shu sababli iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklarni ssenar iqlim tahliliga kiritish lozim hisoblanadi.

ESG sohasidagi risklar bank amaliyotida qo'llanilishi bo'yicha xalqaro tajribani o'rganadigan bo'lsak, bu sohada Yevropa tajribasi e'tiborga molik. 2016-yilda Tizimli risklar bo'yicha Yevropa kengashi "Juda kech, juda kutilmaganda: Past uglerodli iqtisodiyotga o'tish va tizimli risk" nomli dokladni e'lon qiladi. Ushbu hujjatda uglerod stress-testi yuzaga kelgani, iqlim bilan bog'liq tadqiqotlar o'tkazilishi muhimligi ta'kidlanadi. Angliyada moliyaviy xizmatlarni tartibga soluvchi organ Prudential tartibga solish boshqarmasi sug'urta tashkilotlari va banklar uchun Buyuk Britaniya moliyaviy tizimining iqlim risklariga qarshi tura olishini tekshirish maqsadida



sinov stress-testlari joriy qilinishini e'lon qilgan. 2020-yilda banklar uchun tadqiqot ssenariylari joriy qilingan. Iqlim risklarini modellashtirish 30 yil uchun amalga oshirilib, o'z ichiga uch xil ssenariyni oladi va siyosiy vaziyatlar tezligiga bog'liq (erta siyosat, kech siyosat, qo'shimcha siyosiy ssenariylarsiz).

2019-yilda Fransiya markaziy banki (Banque de France) banklar va sug'urta tashkilotlari uchun iqlim o'zgarishi bo'yicha stress-test o'tkazishni boshlaganini ma'lum qiladi. Ushbu tadqiqotlarda 2025, 2030 va 2040-yillarda uchun ko'plab modellar shakllantirilgan. Ushbu tadqiqotlarda jismoniy risklar, o'tish jarayoni bilan bog'liq risklar turli geografik darajada ko'rib chiqilgan.

Niderlandiya markaziy banki (De Nederlandsche Bank) energiya uzatish riski bo'yicha stress-test amalga oshirib, niderland banklari, sug'urta tashkilotlari hamda pension fondlariga bunday risk ta'siri mayjudligini tasdiqlagan. Yevropa Markaziy banki raisi iqlim o'zgarishlari oqibatlarini global darajada yumshatishda markaziy banklarning o'rni muhimligini ta'kidlaydi.

Kanada markaziy banki 2019-yilda moliyaviy tizim tahlilida iqlim o'zgarishini iqtisodiyotning asosiy muammolaridan biri sifatida baholaydi. Bank tizimi barqarorligini baholashda iqlim o'zgasharishlari ta'sirini stress-test qo'llash orqali amalga oshirishni joriy qiladi.

AQSH markaziy bank Federal rezerv tizimi iqlim o'zgarishi pul-kredit siyosatini ishlab chiqishda qo'llanilishini belgilab qo'ygan.

Stress-test usuli yordamida tahlil qilish bankka iqlim risklari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni proqnoz qilishga yordam beradi. Banklar makroiqtisodiy va moliyaviy stress-testlashni iqlim komponenti bilan integratsiyalab, mavjud stress-test usulini qo'llashlari mumkin.



1-rasm: Iqlim bilan bog'liq stress-test bosqichlari

Yuqorida banklar tomonidan iqlim bilan bog'liq stress-testni amalga oshirishning zarur bosqichlari aks ettirilgan. Birinchi bosqichda portfel tahlilini amalga oshirish zarur bo'lib, bu tahlil mavjud aktivlar portfelining maxsus sektorlar bo'yicha taqsimlangan tahlilini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Chunki aktivlar portfelining geografik taqsimlanishini baholash muhim hisoblanadi. Keyingi bosqichda ssenariy tanlanib, turli iqlim ssenariyalarini modellashtirish uchun turli sohalarni iqtisodiyot bilan o'zaro aloqasini ifodalovchi ma'qul yo'nalish qabul qilinadi.

Stress-test mikrodarajada, ya'ni ma'lum bir bank misolida yoki makrodarajada to'liq bank tizimi uchun amalga oshirilishi mumkin. Bunday stress-testlarni amalga oshirish inqirozni boshqarishda samarali vosita bo'lib hisoblanadi. Makrotestlarning afzalligi shundaki, bunday stress-testlarni amalga oshirishda turli manfaatdor subyektlar, jumladan, banklar, nazorat organlari, markaziy bank, aholining turli pozitsiyalari hisobga olinadi. Makrotestlarda kredit portfeli sifatining hisobga olinmasligi kutilayotgan yo'qotishlarni qamrab ololmasligi ehtimolini yuzaga keltiradi.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida tadqiqot jarayonida ssenariy tahlili asosida kredit riskini makrostestlashning markazlashmagan modelini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Model ikki blokni o'z ichiga oladi: makro va mikroiqtisodiy bloklar. Makroiqtisodiy blok alohida makroiqtisodiy o'zgaruvchilar orasida o'zaro aloqadorlikni baholash uchun muammoli davomli ssenariylardan iborat bo'ladi. Mikroiqtisodiy blok kreditlar sifatining makroiqtisodiy sharoitlarga sezuvchanligini dinamik ekonometrik modellar yordamida baholashga asoslanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, bank tizimi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i ekanligini hisobga olgan holda, turli salbiy ta'sirlar hisobiga yuzaga keladigan inqiroz holatlarining oldini olish maqsadida samarali stress-testlar mexanizmidan foydalanish kerak.

Stress-test risklarni boshqarish vositasi sifatida, bozor, foiz stavkalari, valyuta almashuv kursi, kredit risklari, likvidlilik risklarining turli salbiy ssenariylarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha ssenariylarda bank tizimining bunday risklarga chidamliligini tahlil qilishga yordam beradi. ESG-risklar bank risklari sohasida yangi yo'nalish hisoblanib, mamlakat milliy bank tizimida bunday risklarni baholashning stress-test metodologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga hamda iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirlari yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Демченко, Л.В. Банковский надзор: модели и структурные особенности // Интеллект. Инновации. Инвестиции – 2016. – №11.
2. Э.С. Емельянова, В.А. Свадковский: "Стресс-тестирование ESG-рисков в международной надзорной практике", Естественно-гуманитарные исследования. –№32(6), 2020.
3. Григорьева Кристина Владимировна, "Контрольно-аналитический инструментарий оценки рисков потери финансовой устойчивости банка", диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Москва – 2022, стр.78-112.
4. Шарипова Н.Х. "Банк тизимининг ривожланиш тенденциялари асосида банкларнинг молиявий барқарорлигини баҳолаш", Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 3, June 2023. ISSN: 2181-1016.
5. Blashke W., Jones M., Majnoni G., Peria M. "Stress Testing of Financial Systems: An Overview of Issues, Methodologies and FSAP Experiences". IMF Working Paper, 01/88, (2001).
6. Cihak M. "Introduction to Applied Stress Testing", IMF Working Paper, 07/59, (2007).
7. Grigorain D., MeleckyM.,et al. "Stress Testing the Banking Sector of Tajikistan – Technical Note". IMF-WB FSAP (2016).
8. N.Sharipova "The process of digital transformation in the activities of commercial banks and prospects for its application in Uzbekistan"/ International Finance and Accounting, 2020.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.